

## REGISTON ANSANBLINING O'ZIGA XOSLIGI

Isoqova Sabrina, Òrinbadalova Sevara, Xòjamqulova Madina

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari

**Annotatsiya:** O'zbekiston hududidaminglab tarixiy obidalar qad ko'targan bo'lib, ular xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelayotgan boy ma'naviy qadriyatlarini, hamda yaratuvchanlik va bunyodkorlik salohiyatini mujassam etgan, ajdodlarimizdan biz kelajak avlodlarga qoldirilgan bebaho va nodir merosdir. Ushbu maqola ham Rgiston ansanblining yaratilish qurilish tarixiga bag'ishlanadi. Ansanblida hozi 3ta tarixiy madrasa qad ko'targan. Ansanblning hozirda turli davlatlardan turistlarni Samarqand viloyatidagi chirlamoqda.

**Kalit so'zlar:** forscha, Ulug'bek madrasasi, Registon, peshtoqi, Yalangto'sh Bahodir, Tillakori va Sherdor madrasalari, Quyosh – shamsiy, YUNESKO, Samarqand.

Registon Forschada,, qumloq joy,, degan ma'noni anglatadi. Registon sharq mamlakatlari shahrlarining ma'muriy, savdo – hunarmandchilik markazi hisoblangan. X asr tarixchisi Istaxriyning yozishicha, hozirgi Registon maydonidan qadimda suv oqib o'tgan bo'lib, keyinchalik bosqinlar natijasida ariqlar ko'milib suv oqmay qoladi. Sohibqiron Amir Temur davrida ushbu maydon shaharning asosiy savdo markazi hisoblangan. Nabirasi Mirzo Ulug'bek davrida esa Samarqandda shaharning olti asosiy yo'li kesishgan joyda Registon maydoni shakllanadi va rasmiy tantanalar o'tkaziladigan joy bo'ladi. Ulug'bek bu maydonda madrasa, xonaqoh va karvonsaroy kabi 3 binodan iborat o'ziga xos ajoyib obidalar yaratadi.

Ulug'bek madrasasi darvning ulug' yodgorlik va noyob tarixiy yodgorliklardan biridir. Bu madrasada buyuk olim va ulamolar dars o'tishgan. Handasaviy va islmiy naqshlar peshtoq yozuvlari bilan davr kishilarining ham falsafiy, ham estetik qarashlarini namoyon etgan. XVII asrning yirik me'moriy yodgorliklaridan biri Sherdor madrasasi bo'lib, u biroz ilgariroq barpo etilgan Ulug'bek va Tillokori madrasalari bilan birgalikda yaxlit me'moriy majmuani tashkil etadi va Registon maydonga tugallik bergan.

1417—20 yillarda Samarqandda qurilgani hisoblanadi. Tomonlari 81x56 metrni tashkil etuvchi bu imoratning bosh peshtoqi toqining kengligi 16,5 metrga teng. To'rt burchagida har biri uch yarusli to'rtta minora bo'lgan, hozir ularning faqat birinchi yarusi (ikkitasida u ham to'liq emas) saqlanib qolgan. Peshtoq markazida joylashmay balki peshtoqning ikki yon devoriga yondosh yeridan boshlanadigan kirish tirsaksimon yo'lak orqali bino hovlisiga olib chiqadi. Hovli atrofida 28 ta hujra ikki kavatli tarzda joylashgan va hujralarning har biri o'z navbatida 2 bo'limli bo'lgan. Pastki qismi kunduzi o'tirishga mo'ljallangan bo'lsa, yuqori qismi yotoqxonaga vazifasini o'tagan. Madrasa hovlisida tomonlarining to'rt markaziy qismida to'rtta mahobatli ravoqli ayvoni bor. Ravoqlardan biri bosh peshtoq orqasida joylashganidan tashqari, qolgan uchta yozgi darsxonaga vazifasini o'tagan. Qishgi darsxonalar esa bosh peshtoqning ikkala tomonida joylashgan, xovli to'rida madrasa toliblari va a'yonlariga xizmat ko'rsatadigan kattagina masjid joylashgan. Bino tashqarisi girih va hattotiy naqshlar bilan koshinlangan.

XVII asrning yirik me'moriy yodgorliklari bu Sherdor madrasasi bo'lib u biroz ilgariroq barpo etilgan Tillakori va Ulug'bek madrasalari bilan birgalikda yaxlit me'moriy majmuani tashkil etadi va

Registon maydonga tugallik bergan. Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir hashamatli binolar qurishga boshqa beklar bilan raqobat qilib, vayrona holatidagi Ulug'beki xonaqohi o'rnida Sherdor madrasasini, Mirzoyi karvonsaroy o'rniga Tillakori madrasa-masjidini qurdirgan.

Tillakori va Sherdor madrasalari katta o'lchamlilik, pardoiz ishlarining nozikligi bilan ajralib turadi. Mezana minoraning yuqori qismi, azon aytiladigan joy. Ko'pincha ravoqsimon darchalar galereyasidan iborat. Ichki devorlari odatda ganch naqsh bilan naqshlanadi, tashqi tomoni minoraning umumiy bezagiga mos holda sirkor parchinlar bilan pardozlanadi. Usti oddiy gumbazcha bilan yopiladi yoki ochiq bo'lishi ham mumkin. Ayrim hollarda guldasta yoki burjlar ham mezana vazifasini bajargan.

Sherdor madrasasi 1619 -1635/36 – yillarda Ulug'bek xonaqohi o'rniga Samarqand hokimi yalangto'sh Bahodir tomonidan barpo etilgan. Uning fasadi Ulug'bek madrasasi fasadi bilan bir xil. Bu ikki binolarning plani bir – biriga o'xshash bo'lsada, ammo bir xil emas. Sherdor madrasasining to'rt ayvonli kvadrat shaklidagi hovlisi ikki qavatli 54 ta hujralar bilan o'rab olingan 1. Madrasa 54 ta hujra, ikkita gumbaz ostidagi xonaqohlardan iborat. Hovlisining burchaklarida darsxonalar joylashgan bo'lib, lekin bu yerda masjidning zali yo'q, janubi – g'arbiy darsxona esa ziyoratxona hisoblangan. Madrasa ikki qavatli, bosh tarzidagi peshtoqining ikki yonida guldasta ishlangan. Peshtoq ichkarisi koshinkori bezaklar bilan bezatilgan. Peshtoqning ikki tomonida gumbazli darsxona va masjid joylashgan. Sherdor madrasasi fasadidagi minoralar ham Ulug'bek madrasasining o'xshash tik, biroq orqa tomondagi fasadlar burchagi guldasta minoralar bilan o'ralgan. Bu binolarni arxitektura jihatidan bezashda sirlangan g'ishtlar, o'yma naqshlar, marmar taxtalardan foydalanilgan. Madrasaning bunday bezaklari yuksak did va texnik tomondan yuqori darajada ishlangan. Nafis naqshlar butun binoni qamrab olgan. Ular goh yirik geometrik va yozuv naqshlari, goho esa gullarni tasvirlaydigan ingichka chiziqlar yoki suls yozuvlariga o'xshash yozuvlar namoyon bo'ladi. Madrasa musavviri Muhammad Avaz bo'lgan.

Madrasaning peshtoq ichkarisidagi koshinkori bezak orasida oq harflar bilan qora zaminli koshinga me'mor Abdujabbor Isfixoniy nomi yozilgan. Peshtoq ravoqi tepasidagi timpanda qizg'ish zarhal oq ohuni quvlamoqda. Quyosh bodomqovoq qiyiq ko'zli tasvirlangan va yuzi zarhal tusli yog'du bilan hoshiyalangan. Madrasa peshtoqidagi sher, ohu va quyosh tasvirlari shu ma'nodaki, Quyosh – shamsiy yilning beshinchi oyi asad ( sher ), o'ninchi oyi esa jaddiy (kiyik, ohu ) dir. Madrasa qurilishining boshlanishi va tugallanishi ham mana shu oylarda yuz bergan deb taxmin qilinadi. Sherdor madrasasi va gumbazlarida Qur'oni Karimning yettidan bir qismi hisobidagi oyatlar va Hadisi sharifdan ham kalimalar keltirilgan. Madrasa devorlariga esa shoir Mavlono Sherxo'ja she'rlari bitilgan. Bu she'rlarning barchasi madrasani qurdirgan Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir haqida bo'lib, ularda hukmdor ulug'lab yozilgan.

Tillakori madrasasini 1646 – 1660 – yillarda Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir ushbu madrasa va Jome' masjidini qurdiradi. Madrasa Ulug'bek va Sherdor madrasalarini muvozanatlashtirib, hovli to'ridagi bino sifatida barpo etilgan. Madrasani me'morlar asimetric plan asosida qura boshlaydilar va madrasaning uch tomonida hujralarni, hovlining g'arb tomonida qishki masjid binosini joylashtirganlar. Ammo bunda asosiy ikki qavatli fasad simmetriyasini saqlab qolganlar. Masjidga g'arbiy peshtoq orqali kiriladi. Masjid markazida esa mehrobi bo'lgan asosiy monumental bino joylashgan. Xonqohning o'ng tarafida marmar zinapoyali minbar bor.

Madrasaning devorlari juda ko'rkam ishlangan bo'lib, devorlari, darchalari hamda inter'yer qubbalari pastdan to shiftgacha kundal uslubida tushirilgan gulli rasmlardan iborat. Ushbu yozuvlarga tilla suvi yuritilganligi uchun ham madrasa nomi,, Tillakori,, deb atalgan. Madrasa bezaklari Sherdor madrasasi bezaklaridan birmuncha farq qiladi. Sirlangan g'ishtlardan solingan naqshlar birmuncha mayda ishlangan bo'lib, qo'shuv alomatini tasvirlovchi kesishgan chiziqlardan iborat 1. Madrasa peshtoqi chuqur ravoqli, uning ikki qanotini ayvon galeriya egallagan. Hovlining to'rt tomonida peshtoqli ayvon mavjud. Registon maydonida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar paytida 60 dan

ziyod metal buyumlar topilgan. Bu esa XIV – XV asrlardagi Sanmarqand chilangarlik maktabi yuksak cho'qqilarga ko'tarilganligini isbotlaydi. Bu yerdan topilgan misdan va bronzadan yasalgan ko'zalar, oftobalar, laganlar, kosalar, shamdonlar, eshik dastalarining sirtiga ishlangan nozik naqshlar jilosi kishini hayratga soladi.

Mustaqillik yillarida Prezidentimiz ko'rsatmasi asosida Registon maydonida ulkan obodonlashtirish ishlari olib borildi. Juda ko'plab obidalarimiz singari Registon ansambli ham qadimiy ko'rinishi bilan zamonaviy maydonlarning me'morchigi uyg'unlashtirib, betakror, go'zal ko'rinishi yaratildi. Hozirgi kunda Samarqand shahrini Registon ansamblisiz tasavvur etish qiyin. 1997 – yildan boshlab ushbu me'moriy yodgorlik maydonida Prezidentimiz I. A. Karimov tashabbusi va YUNESKO rahnamoligida har ikki yilda bir marotaba,, Sharq taronalari,, xalqaro musiqa festivallari o'tkazish ezgu an'anaga aylandi

Xulosa, Registon ansanblida asosan 3ta madrasa joylashgan. Ansanbldagi madrasalar o'z davrida ilm markazlari hisoblanadi. Madrsalar boshqa boshqa asrlarda qurilgan. Madrasalar boshqa boshqa asrlarda qurilgan bo'lsa ham bir biriga judayam uyg'unlik bilan bunyod etilgan. Madrasada hozirda Sharq taronalari musiqiy festivali o'tkaziladi. O'zbekistonga kelgan turistlarni asosiy qismi ushbu ansanblni ko'rib doimo hayratda qolishgan.

**Foydalangan adabiyot:**

1. M. M. Vaxidov , Mirzayev “Me'morchilik”. T.: 2010.
2. Muhammad Ahmedov “O'rta Osiyo me'morchilik tarixi”. T.:1995
3. Abdullayev “O'zbekiston san'ati tarixi”. T.: 2007
4. Usmon Qoraboyev “O'zbekiston madaniyati”. T.: 2011